

**“MILLIY MUSIQA VA TARBIYA UYG‘UNLIGI: PEDAGOGIK
YONDASHUVLAR TAHLILI”**

Xakimjonova Go‘zal Abdunabi qizi

O‘ZMPU talabasi

Annotatsiya: *Rivojlanib borayotgan zamonda yoshlar hayotidagi musiqaning o‘rni, tarbiyaviy vosita ekaligi, milliy musiqa va xalq musiqa merosining yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Milliy musiqa xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati, milliy ong va tafakkurini aks ettiruvchi muhim ma’naviy qadriyat sifatida tahlil qilinadi. Maqom san’ati yosh avlod tarbiyasiga ta’siri, ularning estetik, axloqiy hamda ruhiy kamolotdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada Abu Nasr Forobiyning musiqa haqidagi qarashlari, Shashmaqom tizimining tarixiy va ma’naviy mohiyati yoritilib, milliy musiqaning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni muhokamalarda ochib berildik.*

Kalit so‘zlar: *milliy musiqa, maqom, Shashmaqom, milliy qadriyat, ma’naviy tarbiya, milliy ong, yoshlar tarbiyasi, Forobiy, mumtoz musiqa, milliy madaniyat.*

**“THE HARMONY OF NATIONAL MUSIC AND EDUCATION: ANALYSIS OF
PEDAGOGICAL APPROACHES”**

Khakimjonova Gozal Abdunabi qizi,

student of the Uzbekistan State Pedagogical University

Annotation: *The role of music in the lives of young people in developing countries, its educational value, the role and significance of the heritage of national music and folk music in the spiritual and moral education of young people are emphasized. National music is analyzed as an important spiritual value reflecting the historical memory, culture, national consciousness and thinking of the people. The impact of the art of maqom on the education of the younger generation, their importance in aesthetic, moral and spiritual development are scientifically and theoretically substantiated. The article discusses Abu Nasr Farabi's views on music, the historical and spiritual essence of the Shashmaqom system, as well as the role of national music in the modern education system.*

Keywords: *national music, maqom, Shashmaqom, national value, spiritual education, national consciousness, youth education, Farabiy, classical music, national culture.*

«ГАРМОНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКИ И ОБРАЗОВАНИЯ: АНАЛИЗ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ»

Хахимджонова Гозал Абдунаби кизи

студентка Узбекского государственного педагогического университета

Аннотация: В статье освещается роль музыки в жизни молодежи в развивающихся странах, ее воспитательная ценность, роль и значение национальной музыки и фольклорного музыкального наследия в духовно-нравственном воспитании молодежи. Национальная музыка анализируется как важная духовная ценность, отражающая историческую память, культуру, национальное самосознание и мышление народа. Научно и теоретически обосновано влияние искусства макама на образование молодого поколения, его важность в эстетическом, нравственном и духовном развитии. В статье освещаются взгляды Абу Насра Фараби на музыку, историко-духовная сущность системы шашмакома, а также обсуждается роль национальной музыки в современной системе образования.

Ключевые слова: национальная музыка, маком, шашмаком, национальная ценность, духовное воспитание, национальное самосознание, воспитание молодежи, Фараби, классическая музыка, национальная культура.

O‘zligini tanish, anglash, tarixni o‘rganish milliy me’rosdan boshlanadi. Inson kamolotini, tafakkurini rivojlantiruvchi, dunyoqarashini o‘stiruvchi, milliy ongni rivojlantiruvchi qadriyatlar turlicha. Milliy ong, milliy g‘urur va tafakkur eng avvalo, milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, xalqimizning o‘ziga xos madaniy va moddiy boyliklarini o‘rganish, his qilish, unga mehr qo‘yish, asrab-avaylash, va rivojlantirish negizida shakllanadi. Xalqimizning milliy qadriyatlari tizimida muhim o‘rin tutuvchi xalq musiqa merosining yoshlar ta’lim-tarbiyasida tutadigan o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Milliy me’rosimizning yorqin na’munalaridan biri milliy musiqadir. Musiqa –ohang (intonatsiya) san’ati, sadolarda ifodalangan voqelikning badiiy aksidir. U borliqni o‘ziga xos tarzda aks ettirib, uni boyitadi, hamda uni tushunib olish va o‘zgartirishga yordam beradi. Milliy musiqa —bu xalqning ichki dunyosini ifoda etuvchi betakror san’at turi bo‘lib, u asrlar davomida shakllangan. Milliy musiqa –bu faqat kuy va ohanglar yig‘indisi emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati, tafakkurini aks ettiruvchi eng muhim omillardan biridir. Murakkablik tamoyili milliy musiqani o‘rganishni milliy madaniyatning kengroq mazmuni, jumladan, uning an’analari, bayramlari va tarixiy hikoyalari bilan uzviy bog‘lash zarurligini taqozo etadi. Bu yaxlit tushuncha musiqaning alohida estetik hodisaga aylanishiga yo‘l qo‘ymaydi va uni madaniyatning tirik organi sifatida

muhim organ sifatida joylashtiradi. Barkamollik tamoyili ta’lim jarayonining uzluksizligi va ketma-ketligini ta’minlaydi. Bilim va tajribalar bir-birining ustiga spiral shaklda qurilgan bo’lib, bunda har bir yangi element ilgari o’rganilgan narsalarni chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi, axloqiy ongning bosqichma-bosqich va mustahkam shakllanishiga olib keladi. Milliy musiqaning eng yorqin na’munasi esa maqomdir. Ota-bobolarimiz g’azallari musiqa ohangiga tushirilgan. Unda mazmunan bebaho fikrlar, g’oyalar bor. Maqomlar – chuqur falsafiy va ruhiy mazmunga ega bo’lib, u orqali inson ruhiy poklanishga erishadi. Dostonlar, laparlar, mehnat qo’shiqlari – xalqning hayoti, mehnati, sevgi-muhabbati, vatanparvarligi haqida hikoya qiladi. Bu asarlar yosh avlodni ota-bobolar yo’lidan borishga, o’zlikni anglashga, milliy g’urur tuyg’usini uyg’otishga xizmat qiladi.

XIX asrda Buxoroda bir qator musiqiy risolalar yaratilgan. Ular, asosan, Shashmaqomning urf etilgan she’riy matnlaridan iborat bayozlar. Shunday bo’lsa ham, bu manbalardan she’riy matnlar bilan bir qatorda, Shashmaqomning musiqiy tarkiboti, tartib va nizomlariga oid qimmatli ma’lumotlar olish mumkin. Ana shu nuqtai nazardan risola-bayozlar Shashmaqom musiqiy tizimi xususida umumiy taassurot hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shashmaqom tafakkurini tushunish uchun eng avvalo, o’ta muhim bo’lgan ikkita masalaga alohida e’tibor qaratmoq zarur. Ular, birinchidan, uning ma’no-mohiyatini belgilovchi kalit tushuncha – “Musiqiy Shashmaqom” ta’rifi; ikkinchidan, musiqiy Shashmaqomning butunligi va ichki tarkibotini belgilashda yetakchi omillar bo’lgan parda (lad) – ya’ni, musiqiy tovushning past-balandlik chegarasi va vazn (usul) – vaqt, zamon miqdori tizimlari asosiy tamoyil ekanligidir. Risola-bayozlarning ko’pchiligi birinchi sahifaning ustiga qizil siyoh bilan yozilgan quyidagi ta’rif bilan boshlanadi: **“Musiqiy Shashmaqom – oldin o’tgan aziz va mukarram ustozlardan qolgan merosdir”**. Jumlaning ma’nosi: Musiqiy Shashmaqom majmuasi – qadim o’tgan (mutaqaddim) ustozlar ijodiga mansub mutaorif (urf etilgan) muqaddas meros demakdir. Shunga ko’ra, uni ilmi advorga o’xshab “aqliy” (nazariy) ilmlardan emas, balki “naqliy”, ya’ni “og’zaki” ravishda odat etilgan bilim va malakalardan, mutaorifiylikdan kelib chiquvchi tartib va nizomlar deyishgan xaqlimiz. Zamon va makon nuqtai nazaridan mislsiz boylklarni o’zida mujassamlovchi o’zbek musiqasi – mavjud voqe’lik. Uning jonli urf-odatlarini javharining doimiy yo’ldoshi bo’lib kelayotgan fikr, mulohaza va ilmiy qarashlar ana shu voqe’likni idrok etishda ishonchli tayanch manba bo’lib xizmat qiladi.

Mo’tabar musiqiy merosimiz qadimiy namunalarining mualliflari noma’lum bo’lsa-da, ular o’ziga xos barqaror asos – matn tarzida millat xotirasida yashab kelmoqda. Mumtoz musiqaga mutaoriflik nisbatini berish endi paydo bo’lgan tushuncha emas. Musiqaning inson ruhiyatiga ta’sir qilish borasida keng imkoniyatlari qadimdanoq musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o’ziga jalb qilgan. Sharq musiqashunosligining asoschisi,

uning rivojiga katta hissa qo‘shgan serqirra ijodkor va mutafakkir Abu Nasr Forobiy o‘zining shaxsining ma‘naviy kamolotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan musiqa ta‘limi bilan ham mukammal shug‘ullangan. Al-Forobiy fikricha: “Musika –nodir san‘at, ezgulikka yetaklovchi kuchdir”. Forobiy “Katta musiqa kitobi”ning kirish qismida musiqiy asarlarning eshituvchilar orasida qaror topishida ma‘rifiy urf-odatlarining ahamiyatini alohida qayd etadi. Odat tarzida shakllanadigan nafs (his-tuyg‘ular) va uning go‘zal suvrat (shakl)laridan biri bo‘lmish musiqiy va malakalarni Forobiy “amaliy musiqiy san‘at” deydi. “Ravshan bo‘ldiki, musiqa san‘atining ba‘zi asoslari urf-odatdagi [mutaorifiy] ilmlardan, ba‘zisi esa tabiiy [fizika, akustika] fandan, ba‘zisi esa handasa [geometriya] san‘atidan, ba‘zisi adad [arifmetika] va ba‘zisi amaliy musiqa san‘atidan olinadi”. Belgili maqom yo‘llari Rost, Navo, Ushshoq va boshqalar, “Feruz”, “Tanovar”, “Munojot” kabi son-sanoqsiz kuylar asrlar osha go‘yo xatga bitilgan matndek ohorini yo‘qotmadi. Bu mumtoz asarlarning kuy, vazn va shakl asoslarining puxta ishlanganligi shubha tug‘dirmaydi. Vaholanki, ular muayyan musiqiy asar (tasnifot-kompozitsiya) sifatida qachonlardir va qaysidir yetuk musannif (kompozitor so‘zining ma‘nodoshi) tomonidan yaratilgan, albatta. Bu meros o‘zining yuksak badiiy hamda ijtimoiy ahamiyati tufayli avloddan-avlodga o‘tib, umumxalq mulki va ma‘naviy ozuqasiga aylanib ketgan. Jonli musiqiy qadriyatlarimizning hayotbaxsh kuchi ham shunda.

Milliy musiqaning tarbiyaviy vazifalari. Milliy musiqaning yoshlar tarbiyasidagi vazifalari quyidagicha ifodalanadi. Estetik tarbiya: Yaxshi kuy va qo‘shiqlar eshitish orqali musiqiy did, go‘zallikni anglash hissi shakllanadi. Axloqiy tarbiya: Har bir qo‘shiqda halollik, mehr-oqibat, sabr-toqat, sadoqat kabi fazilatlar kuylanadi. Ruhiy barqarorlik: Kuylar ruhiy muvozanatni saqlashga yordam beradi, stressdan chiqishga ko‘maklashadi. Madaniy merosni anglash: Yoshlar milliy kuylarni o‘rgangan sari, o‘z xalqining musiqiy boyligini anglaydi va uni asrashga harakat qiladi. Zamonaviy musiqachilar tomonidan yaratilayotgan milliy ohangli pop qo‘shiqlar, remiks, ansambllar ijrosidagi maqomlar yoshlar orasida qiziqish uyg‘otmoqda. Bir qator san‘atkorlar milliy ohanglarni zamonaviy formatda taqdim etmoqda, maqom va folklor asosidagi sahna chiqishlari yoshlar orasida ommalashmoqda, internet platformalar orqali milliy musiqani yosh avlodga yaqinlashtirish imkoniyati kengaymoqda.

Umumta‘lim maktablarida, xususan boshlang‘ich sinflarda bolalar tafakkuriga xos, ko‘proq o‘yin raqs harakatlari bilan bog‘liq bo‘lgan bolalar folklore qo‘shiqlarini o‘rganish ulardan tarbiyaviy ta‘sirchan namunalarni maqsadga muvofiq holda tanlab, o‘ziga xos ijro uslublarin ie‘tiborga olgan holda tadbiiq etish milliy musiqiy ta‘limni negizini mustahkamlashda eng muhim omil ekanligi ilmiy nuqtai-nazardan shu soha mutaxassislarining diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Millimusiqa namunalarining parda-tuzuk(lad-tonallik), ohang, ritm va shakllarini ichki his-tuyg‘ular bilan idrok etish orqali

o‘quvchilarda milliy musiqiy idrok rivojlana boshlaydi. o‘zbek xalq musiqa merosi xazinasida kattalar olami bilan kichik yoshdagi bolalar ma’naviy va estetik olamini o‘zida uyg‘unlashtirgan bolalar folklore musiqa asarlari ham muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalilov, T. “Milliy musiqa orqali axloqiy tarbiyaning pedagogik modeli” // Oriental Art and Culture Scientific Methodical Journal. – 2026. – Yanvar soni. – 85-bet.
2. Matyoqubov, O. O‘zbek musiqasi // Ziyouz.uz – 22.01.2018.
3. Jamolova, S. O. “Milliy musiqaning ma’naviy-tarbiyaviy ta’siri yoshlar ongida” // Academic Research in Modern Science International Scientific Online Conference. – 29–30-betlar.
4. Embergenova, G. “Milliy musiqa san’ati va yoshlar tarbiyasi” // “O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2023-yil 28-noyabr. – 173–174-betlar.
5. Abdukarimova, E. “Xalq musiqa merosi milliy musiqiy ta’limning kafolatidir”.